



INTERACTIVE METHODS USED IN HIGHER MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

A.F. Urazov

Specialized Training Center of the National Guard of the Republic
of Uzbekistan

Head of the Weapons and Firing Cycle Lieutenant Colonel

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17084353>

ARTICLE INFO

Received: 03rd September 2025

Accepted: 08th September 2025

Online: 09th September 2025

KEYWORDS

Higher education institution,
tactical training, reserve and
reserve officers, training,
interactive methods, teaching,
personnel training, documents,
science, skill, efficiency.

ABSTRACT

This article examines interactive methods used in the training of reserve and standby officers at higher military educational institutions. A scientific and practical analysis is conducted on issues related to the preparation of reserve and standby officers in the higher military educational institutions of our country, the requirements of regulatory documents for the teaching of disciplines, as well as the effectiveness of using innovative teaching methods in the learning process.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ВЫСШИХ ВОЕННЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

А.Ф. Уразов

Специализированный учебный центр Национальной гвардии Республики
Узбекистан

Начальник цикла вооружения и стрельбы подполковник

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17084353>

ARTICLE INFO

Received: 03rd September 2025

Accepted: 08th September 2025

Online: 09th September 2025

KEYWORDS

Высшее учебное заведение,
тактическая подготовка,
офицеры запаса и запаса,
обучение, интерактивные
методы, преподавание,
подготовка кадров,
документы, наука,
мастерство,
эффективность.

ABSTRACT

В данной статье рассматриваются интерактивные методы, применяемые при подготовке офицеров запаса и резерва в высших военных учебных заведениях. Проводится научно-практический анализ вопросов, связанных с подготовкой офицеров запаса и резерва в высших военных учебных заведениях нашей страны, требований нормативных документов к преподаванию дисциплин, а также эффективности эффективного использования инновационных методов обучения в процессе обучения.

OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR

A.F.O'razov



O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o'quv markazi
Qurol-aslaha va o'q otish sikli boshlig'i podpolkovnik
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17084353>

ARTICLE INFO

Received: 03rd September 2025
Accepted: 08th September 2025
Online: 09th September 2025

KEYWORDS

Oliy ta'lim muassasa, taktik tayyorgarlik, rezerv va zaxiradagi ofitserlar, o'quv mashg'ulotlar, interfaol metodlar, o'qitish, kadrkar tayyorlash, hujjatlar, fan, o'zlashtirish, samaradorlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Oliy harbiy ta'lim muassasalari rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashda qo'llaniladigan interfaol metodlar yoritilgan. Mamlakatimiz OTMda rezerv va zaxiradagi ofitser kadrlarni tayyorlash, fanlarni o'qitishda rahbariy hujjatlarning talablari, mashg'ulotlar davomida ta'limning innovatsion metodlaridan unumli foydalanish o'zlashtirish samaradorligi xususida masalalar ilmiy-amaliy tahlil qilingan.

Kirish (Introduction). Barchamizga ma'lum, so'ngi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimiga e'tibor kuchaytirildi. Ta'lim tizimini izchil rivojlantirish yuzasidan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz ta'lim tizimidagi islohotlarning mantiqiy davomi, o'z vaqtida qabul qilingan muhim hujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida harbiy tayyorgarlik tizimi bu eng avvalo oliy kasbiy ta'lim tizimining shu qatorda harbiy ta'limning ham va umumiy ta'lim tizimining asosiy qismidir. Oliy ta'lim muassasalarida harbiy ta'limning nazariy va amaliy faoliyati, tizimni takomillashtirish va kerakli harbiy kadrlarni tayyorlash yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Oliy ta'lim muassasasi harbiy fakultetlarda barcha fanlar yetakchi fan hisoblanadi. Fan oldida turgan asosiy maqsad, tinglovchilarda yuqori komandirlik xislatlarini tarbiyalash, jangning murakkab vaziyatlarida mustaqil, operativ qaror qabul qila oladigan, bo'linmalarga mohirlik bilan rahbarlik qila oladigan umumqo'shin bo'linmalarining komandirlarni tayyorlash. Ularni yuqori axloqiy, ruhiy sifatlarini, keng dunyoqarashini, bilimini, peshqadamlik sifatlarini, o'z Vataniga va Qurolli Kuchlariga nisbatan faxr bilan tarbiyalash.

Ma'ruza o'quv mashg'ulotlarning eng muhim turlaridan biri sanalib, tinglovchilarning nazariy tayyorgarligini tashkil etadi.

Ma'ruza - bu mavzuning ko'rib chiqilayotgan savollari bo'yicha kengaytirilgan nazariy axborot berish, ilmiy tahlil qilishdir. O'qiladigan ma'ruzalar maqsadi fanga oid ilmiy bilimlarning muayyan tizimga solingan asoslarini havola etish, fan va texnikaning muayyan sohadagi holati va taraqqiyotining istiqbollarini yoritish, eng murakkab va asosiy masalalarga e'tiborni qaratishdan iboratdir.

Munozara o'quv dasturining asosiy va eng murakkab masalalari (mavzulari, bo'limlari) bo'yicha o'tkaziladi.



Munozaralarning bosh vazifasi – ma’ruzalar davomida hamda o’quv va ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlash jarayonida egallangan bilimlarni mustahkamlash, o’quv materiallarini izlab topish, umumlashtirish va bayon etish ko’nikmalarini singdirishdir. Seminar maqsadlariga turli usullar vositasida erishilishi mumkin. An’anaviy savol-javoblar usuli bilan bir qatorda munozara o’tkazish, o’quv guruhini muxolif jamoalarga bo’lib interfaol usullarni qo’llab seminar o’tkazilishi mumkin.

Guruhiy mashg’ulotlar harbiy texnika va ob’ektlar, qurol-aslaha va o’q dorilarni o’rganish maqsadida o’tkaziladi hamda ularni qo’llash, ishlatish va ta’mirlashni tashkillashtirish bo’yicha tinglovchilarni o’qitish asosini tashkil qiladi. Guruh mashg’ulotlari maxsus sinflarda, trenajyor, dala-o’quv va umumharbiy tayyorgarlik bazalaridan maksimal foydalangan holda o’tkaziladi. Ayrim guruh mashg’ulotlarida, faqat tor doiradagi mutaxassisliklar uchun ahamiyatga ega bo’lganligi sababli umumiy oqimda ko’rib chiqilmagan savollar, ta’lim oluvchilarga ma’ruza usulida yetkazilishi mumkin.

Guruh mashqlari tinglovchilarning jangovar harakatlarni rejalashtirish, tashkillashtirish, ta’minlash va qo’shinlarni boshqarish bo’yicha amaliy tajribani egallashi maqsadida taktik va taktik-maxsus fanlar bo’yicha o’tkaziladi. Qoidaga ko’ra, guruh mashqlarida barcha tinglovchilar ma’lum bir mansabdor shaxsning vazifa (majburiyat)larini bajargan holda harakatlanadi.

Amaliy mashg’ulotlar mashq qilish usuli orqali o’tkazilishi mumkin. Ushbu mashg’ulotlarning **bosh mazmuni** – har bir tinglovchining amaliy ishidir.

Qurol-aslaha va harbiy texnikada imitatsiya vositalari qo’llanilgan tarzda o’tkaziladigan amaliy mashg’ulotlarda, taktik fanlar bo’yicha guruh tarkibida o’tkaziladigan mashg’ulotlar davomida bajarilishi lozim bo’lgan ishlarning belgilangan hajmini har bir tinglovchi sifatli va to’la-to’kis bajarishi uchun o’quv guruhi va undan katta o’quv bo’linmasi 12-15 nafar tinglovchilardan iborat kichik guruhlariga bo’linadi.

Taktik (maxsus-taktik) mashg’ulotlar tinglovchilarni bo’linmalar (guruh va vzwodga teng bo’linmalar) jangini tayyorlash, tashkillashtirish, ta’minlash va olib borishga amaliy o’rgatishning asosi sanaladi.

Ushbu mashg’ulotlar tabiiy joyda qurol-aslaha va harbiy texnika qo’llanilib o’tkaziladi. Bir tomonlama, ikki tomonlama, dushmanni ishoralab, jangovar o’t ochish bosqichi bilan o’tkazilishi mumkin.

*Ma’ruzamning ikkinchi qismida barcha fanlarini o’qitishda innovatsion va **interfaol** metodlardan foydalanishning xususiyatlari to’g’risida qisqacha bayon etiladi.*

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilik demakdir. **interfaol** yoki **interaktiv** («Inter»- bu o’zaro, «act»- harakat qilmoq) – o’zoro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo’lishni anglatadi. «**Interaction**»- hamkorlikni (boshqalar bilan) bildiradi. **Nushalash** odatiy hol bo’lib, bu holatdan chiqish uchun bo’lgan har qanday harakat **innovatsiya** deb hisoblanadi.

Usul (metod) – yunoncha so’zdan olingan bo’lib, “Metodos” – biror narsaga yo’l ma’nosini anglatadi. Ta’lim berish usuli, ta’lim maqsadini amalga oshirish bo’yicha ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi bilan hamkorlik faoliyatining murakkab jarayonining asosi hisoblanadi.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Usullarni tanlashni asosiy qoidasi – turlicha emas ta’lim berish maqsadiga mos kelish. Usullarga qo’yiladigan asosiy talab – natija beradigan, faqat bittasini qo’llash. Usulning asosiy natijadorligining mezonlari – belgilangan vazifani hal etish uchun uni qo’llashning mosligi va tejamkorligi. Ta’lim texnologiyasini loyihalashda usulni ongli tanlash, ularni har birining imkoniyatlarini ko’ra bilishi kerak[5].

Yaxshi yoki yomon usullar mavjud emas. Usulning natijaviyligini bajarilgan yoki bajarilmagan vazifa bo’yicha xulosa chiqarish mumkin.

O’qitishning monologik – nafaol, dialogik-faol va poliologik-interfaol shakllari slaydda taqdim etilgan.

Interfaol o’qitish metodlari



Aqliy hujum usuli

Aqliy hujum – g’oyalarni generatsiya qilish usuli. Qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar: uni yechish uchun shaxsiy g’oyalarni ilgari suradilar (generatsiya qiladi). U ishtirokchilarni o’z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga rag’batlantiradi.

«**Aqliy hujum**»ning vazifasi kichik guruhlar yordamida yangi-yangi g’oyalarni yaratishdan iborat. Bu usul muammoni hal qilayotgan tinglovchilarning ko’proq aql, bovar qilmaydigan va hatto fantastik g’oyalarni yaratishga undaydi. G’oyalar qancha ko’p bo’lsa, shunchalik yaxshi hisoblanadi. Ularning hech bo’lmaganda bittasi ayni maqsadga muvofiq bo’lishi mumkin.

Aqliy hujum qoidasi

o’rtoqlaring fikrini hurmat qil; qancha fikr ko’p bo’lsa shuncha yaxshi;
agar fikrlar takrorlansa ajablanma va jahlingni chiqazma;
boshqalar fikrini tanqid qilma;
fikrlarni ko’pligi yangi fikrni tug’ilishiga sabab bo’ladi;
fikrlaringda biroz shubha bo’lsa ham, ularni aytishga harakat qil.

Idrok xaritasi metodi

(Toni Byuzen, psixolog) -

mavzu yoki o’quv materialini grafikli bayon etish usuli bo’lib, axborotlarni tizimli, tartibli va vizual o’zlashtirish imkonini beradi.



“ASSESSMENT” METODI

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida tinglovchilarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

BLITS-O'YIN

O'yinni o'tkazish tartibi:

1) tinglovchilarga jadvalning o'ng tomonida berilgan tushunchalar bilan tanishib chiqish taklif etiladi;

2) dastlab individual ravishda tushunchalarga mos javobni o'ng tomondagi fikrlar orasidan tanlab, tartiblangan raqamini “indiv. javob” ustuniga (masalan “1” raqamli tushunchaga “12” raqamdagi javob) yozish so'raladi;

3) so'ngra xuddi shunday tartibdagi ish kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Ya'ni “guruh javobi” ustuni to'ldiriladi. Kichik guruh a'zolarida mazkur ustunga yozish uchun yagona javob bo'lishi lozim;

4) o'qituvchi to'g'ri javoblarni o'qiydi. Tinglovchilar o'zlariga berilgan qog'ozning “kalit” ustuniga javoblarni yozib chiqishadi.

5) tinglovchilar mustaqil ravishda kalitga asoslanib, “individual xato” va “guruh xatosi” ustunlarini to'ldiradi.



Baholashda har bir tinglovchining va kichik guruh natijalari tahlil etiladi.

“CHAYNVORD” usuli

O’yinni o’tkazish tartibi:

-tinglovchilarga jadvalning chap tomonida berilgan tushunchalar bilan tanishib chiqish taklif etiladi;

- individual ravishda tushunchalarning javobini o’ng tomonga yozish so’raladi.

- o’qituvchi to’g’ri javoblarni o’qiydi. Tinglovchilar o’zlariga berilgan qog’ozning “javob” ustuniga javoblarni solishtiradi.

Har bir tinglovchining va kichik guruh natijalari tahlil etiladi.

INSERT” METODI

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarini o’zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo’llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o’taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

-o’qituvchi mashg’ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko’rinishida tayyorlaydi;

-yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko’rinishida namoyish etiladi;

-ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o’z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“- ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

«Charxpalak» texnologiyasi

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu texnologiya tinglovchilarni o’tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to’g’ri javob berishga va o’z-o’zini baholashga o’rgatishga hamda, qisqa vaqt ichida o’qituvchi tomonidan barcha tinglovchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi: tinglovchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o’z fikrlarini mustaqil ravishda, erkin bayon eta olish, o’zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan karashga, ko’p fikrlardan kerakligisini tanlab olishga o’rgatish.

Texnologiyaning qo’llanishi: texnologiya o’quv mashg’ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o’quv fanining biron-bir bo’limi tugallanganda, o’tilgan mavzularni tinglovchilar tomonidan o’zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o’tkazish uchun mo’ljallangan. Ushbu texnologiyani mashg’ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.



Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, rangli qalam (yoki flomaster)lar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- tinglovchilarni (sharoitga qarab) guruhlariga ajratish;
- tinglovchi mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtirish;

- tarqatma materiallarni guruh a'zolariga tarqatish.
- guruh a'zolari tomonidan yakka holda mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalar bajariladi;

- har bir guruh, a'zosi o'zi ishlagan tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biron-bir belgisini chizib qo'yadi;

- vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga «charxpalak aylanmasi» yo'nalishida almashtiriladi;

- yangi guruh, a'zolari tomonidan berilgan materiallar o'rganiladi va o'zgartirishlar kiritiladi;

- jamoalar tomonidan o'rganilgan va o'zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo'nalish bo'yicha guruhlararo almashtiriladi (ushbu jarayon guruhlar soniga qarab davom ettiriladi);

- materiallarni oxirgi almashishdan so'ng har bir guruh va har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'ldirgan materiallarini (guruh raqami va o'zlari qo'ygan belgilari asosida) tanlab oladilar;

- har bir guruh a'zosining o'zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a'zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar;

- o'qituvchining tarqatma materialda berilgan vazifalarini o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javoblarni belgilaydi;

- har bir tinglovchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni to'playdilar va o'z-o'zini baholaydilar.

- tinglovchilar o'z baholari yoki ballarini belgilab olishgach, o'qituvchi vazifa bajarilgan qog'ozlarni yig'ib oladi va baho (ballar)ni guruh jurnaliga ko'chirib qo'yadi.

«Charhpalak» texnologiyasidan foydalangan holda mashg'ulot o'tkazish uchun tinglovchilarga qo'yidagicha vazifa berish mumkin. Vazifa uchun zarur bo'lgan tarqatma materialni ilovada keltiramiz.

Tarqatma materialni savollar soni va to'g'ri javoblar xajmidan kelib chiqib 3-5 daqiqa vaqt ajratiladi. Vaqt etib kelganda, jamoalar o'zlariga berilgan tarqatma materialni keyingi jamoaga beradilar, o'zlari esa, boshqa jamoaning materialini olib ularni javoblarini tekshirishadi, agarda noto'g'ri yoki to'liqsiz javobni aniqlashsa ushbu jadvalning o'zlarini shakli (belgisi) tushirilgan kolonkaga to'g'ri bo'lsa(+), noto'g'ri bo'lsa (-), to'liqsiz bo'lsa o'z javoblarini yozib qo'yishadi. Shundan so'ng (2-3 daqiqa), navbatdagi tekshirish (to'ldirish uchun) uzatiladi. O'zlari esa navbatdagi jamoa javobini tekshirishni boshlaydilar.

Bundan har bir guruh faqatgina o'z jamoasi shakli (belgisi) tushirilgan kolonkaga yozishlari mumkin.



Ushbu texnologiyani o'tkazish uchun 15-25 daqiqa vaqt ajratiladi, tushuntirishga esa 20 daqiqa.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Qo'yilgan savolga talabdor tinglovchini taxtaga chaqiraman va uning javobni tinglovchilar bilan birgalikda eshitamiz, tinglovchilar bilan birgalikda muhokama qilib savolni to'ldirish uchun 2-3 tinglovchini tinglaymiz, tinglovchilar bilan savolni muhokama qilib, kamchiliklarni to'ldiraman va ular bergan savollariga javob beraman, shuning bilan ikkinchi savolni yakunlayman. Navbatdagi savolga talabdor tinglovchini taxtaga chaqiraman va uning javobni tinglovchilar bilan birgalikda eshitamiz. Qo'yilgan savolga tinglovchilar bilan birgalikda muhokama qilib savolni to'ldirish uchun 2-3 tinglovchini tinglaymiz. Qo'yilgan savolni tinglovchilar bilan muhokama qilib, kamchiliklarni to'ldiraman va ular bergan savollariga javob beraman, shuning bilan savolni yakunlayman.

TARQATMA MATERIAL

Jamoalar belgilari

1	1. Hujumning maqsadi va vazifasi. Jangovar tartib, jangovar vazifalar.					
2	2. Batalon jangovar tartibidagi motoo'qchi vzvodning o'rni va roli. Hujumni tashkillashtirishda vzvod komandirining ish tartibi.					
3	3. Hujumni tog'da, cho'lda, shaharda (aholi yashash punktlarida) tashkillashtirish va olib borish xususiyatlari.					
Umumiy ballar						

BAHOLASH TARTIBI.

Har bir savolga javoblar - 60-75%-qoniqarli yoki 17-20 ta to'g'ri javob «qoniqarli» baho; - 76-85%-yaxshi yoki 21-24 ta to'g'ri javob «yaxshi» baho; - 86-100%- a'lo yoki 25-30 ta to'g'ri javob «a'lo» baho.

Tarqatma materialga kiritilgan qo'shimchalar uchun boshqa jamoalarga:

-har bir to'g'ri ko'rsatilgan, aniqlik kiritilgan xato va kamchilik uchun +0,5 ball; -har bir noto'g'ri berilgan va o'rinsiz tanbeh uchun - 0,5 ball belgilanadi.

Klaster usuli

Klasterlarga ajratish tinglovchilarga biror-bir mavzu to'g'risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu usul ko'p variantli fikrlashni o'rganilayotgan tushunchalar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi. «Klaster» so'zi bog'lam ma'nosini anglatadi. Klasterlarga ajratishni da'vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlariga fikrlashni rag'batlantirish uchun qo'llash



mumkin. U asosan, yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga yetib borish strategiyasi bo'lib, muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi. Biror mavzu bo'yicha klasterlar tuzishdan bu mavzuni mukammal o'rganmasdan oldin foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Klaster usulini tuzish ketma-ketligi

1. Qog'ozning o'rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo'lgan sathga «kalit» so'z yoki gap yoziladi.

2. Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so'z va gaplar yoziladi.

3. Fikrlar paydo bo'lganda va ularni yozganda fikrlar o'rtasida mumkin bo'lgan bog'lanishlarni belgilash.

4. Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo'lguncha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi.

5. Keltirilgan so'z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

Biz ma'lumotlarni qanday o'zlashtiramiz?

O'qiganda – 10%;

Eshitganda – 20%;

ko'rganda – 30%;

Eshitgan va ko'rganda – 50%;

Boshqalar bilan bahslashganda – 70%;

Hissiy kechirmalarni boshdan kechirgan paytda-80%;

Boshqalarni o'qitganda – 95%.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz OTMda rezerv va zaxiradagi ofitser kadrlarni tayyorlashda barcha fanlar muhim hisoblanadi. Fanlarni o'qitishda rahbariy hujjatlarining talablariga tayanish zarur. Mashg'ulotlar davomida ta'limning innovatsion metodlaridan unumli foydalanish o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Amaliy mashg'ulot va taktik-maxsus o'quvlarda tinglovchilarning amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish. Shuningdek, mashg'ulotlar sifati professor-o'qituvchilarning mas'uliyatiga, tinglovchilarning tirishqoqligiga va o'quv - moddiy baza holatiga bog'liq.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-824-sonli qarori.

3. "Harbiy kafedraning faoliyati va o'quv jarayoni" O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008 yil 5 avgustdagi 12/230 - sonli qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2020 yil 30 iyuldagi "Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta'lim muassasalarida harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi MV 505-sonli buyrug'i.



5. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent, 2003.